

ERKIN VOHIDOVNING "NIDO" DOSTONING G'OYAVIY VA BADIY Ahamiyati

Hamrayev Ilg'or Aktamovich

Samarqand davlat universiteti Urgut filiali Stajyor o'qituvchisi.

Usmonova Umida Kamoloddin qizi

Samarqand davlat universiteti Urgut filiali

Pedagogika va tillarni o'qitish fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2 – bosqich 206 – guruhi talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15091215>

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston xalq shoiri, publitsist, yozuvchi va atoqli olim Erkin Vohidovning hayoti va ijodidagi o'ziga xoslik hamda "Nido" dostonining tahlili, uning badiiy ahamiyati haqida fikr-mulohazalar bayon etiladi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston Qahramoni, publitsist, otashqalb shoir, atoqli olim, xalqchil shoir, qalb nidosi, intim kechinmalar.

ИДЕЙНО-ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ЗНАЧЕНИЕ ПОСЛАНИЯ ЭРКИНА ВОХИДОВА «НИДО»

Аннотация. В данной статье представлено своеобразие жизни и творчества народного поэта Узбекистана, публициста, писателя, видного ученого Эркина Вохидова, а также дан анализ эпической поэмы «Нидо», ее художественного значения.

Ключевые слова: Герой Узбекистана, публицист, страстный поэт, выдающийся ученый, народный поэт, крик души, сокровенные переживания.

THE IDEOLOGICAL AND ARTISTIC SIGNIFICANCE OF ERKIN VOHIDOV'S EPIC POEM "NIDO"

Abstract. This article presents the uniqueness of the life and work of the People's Poet of Uzbekistan, publicist, writer, and prominent scientist Erkin Vohidov, as well as an analysis of the epic poem "Nido", and its artistic significance.

Keywords: Hero of Uzbekistan, publicist, passionate poet, outstanding scientist, folk poet, cry of the heart, intimate experiences.

ERKIN VAHIDOV'UN "NIDO" ADLI EPIK ŞİIRININ IDEOLOJİK VE SANATSAL ÖNEMİ

Özet. Bu makalede, Özbekistan Halk Şairi, yayıncı, yazar ve tanınmış bilim adamı Erkin Vahidov'un eşsiz yaşam ve eserleri ele alınmakta, ayrıca "Nido" destanı ve onun sanatsal önemi analiz edilmektedir.

Anahtar Sözcükler: Özbekistan kahramanı, yayıncı, Ateşkalp şair, seçkin bilim adamı, halk şairi, gönül çılgığı, mahrem deneyimler.

Kirish.

O'zbekiston xalq shoiri, publitsist, atoqli olim Erkin Vohidov 1936-yil 28-dekabrda, Farg'ona viloyati, Oltiariq tumanida tavallud topgan. Otasi Cho'yanboy Vohidov Ikkinchi jahon urushida qatnashgan, qaytib kelganidan keyin vafot etgan. Vohidov o'sha paytda to'qqiz yoshda bo'lgan. Onasi Roziyaxon Vohidova bilan Toshkentga ko'chib kelgan. Onasi ham ko'p o'tmay olamdan o'tgan. Vohidov tog'asi Karimboy Sohiboyev qo'lida katta bo'lgan. Shoirning she'riyatga bo'lgan qiziqishini tog'asi uyg'otgan.

Adib XX asr o'zbek adabiyoti taraqqiyotiga ulkan hissa bo'lib qo'shildi. Xalqimiz, tarixidagi ulkan voqea – Mustaqillik xalq mehrini qozongan otashqalb shoir ijodi va faoliyatiga kuchli ilhom bag'ishladi, yangi davlatning azaliy urf-odatlarini hamda qadriyatlarni ulug'lash, o'zlikni anglash yo'lida fidoyilik bilan xizmat qildi.

Shoirning ulkan xizmatlari uchun "O'zbekiston Qahramoni" unvoniga sazovor bo'lgani shoir muxlislari ko'ngliga misilsiz quvonch baxsh etadi. Jamoat arbobi hisoblanmish Erkin Vohidov uzoq yillik an'analarga ega bo'lgan, tarixi o'zbek adabiyotini yangi jilolar bilan boyitdi.

Uning ijodida o'zbek tili xalqona ohanglarda yana ham nafis va betakror namoyon qildi.

U yaratgan obrazlar xuddi xalq qahramonlaridek muhlislar qalbida yashamoqda. Shoir ona xalqi bilan doim birga bo'ldi, u xalqning dardlarini qalban his etdi va ularni o'ziga xos uslubda ifoda etadi:

Mayli, umrim abadiy emas,
Mayli, yashay faqat bir nafas,
Lekin meni oyga qilib teng,
Shu'lalardan yasab koshona.
Quyosh sari uzatgan xalqning
Boshi uzra bo'lay parvona.

Adibning ilk dostonlaridan biri "Nido" dostoni 1964-yilda yozilgan. 1965-yilda "Nido" she'riy to'plami chop etilgan. Dostonni muallif ikkinchi jahon urushida halok bo'lgan otasiga bag'ishlagan.

Qalbim o'rtamoqda so'ngsiz armonim...
Yurak qonim bilan bitgan dostonim

Sizga bag'ishladim, Otajon!

Shoirning bu dostoni unga shuhrat olib keldi. Ushbu dostonida xalqning kechinmalari, harbiy vatanparvarlik, otalar jasorati g'oyalari ilgari surilgan. "Nido" dostonni ikkinchi jahon urushida halok bo'lgan insonlar va bu urush olib kelgan kulfatlar hamda yetkazilgan jarohatlar haqidadir. Adibning ijodiga xos bo'lgan eng muhim jihat shundaki, unda xalqning ziddiyatga to'la, sertashvish, mashaqqatli hayoti haqidagi haqiqat mujassam etilgan. U inson deb atalmish jumboqning intim kechinmalari-kechmishlarini teran anglaydi va bularning barini dostonida e'tirof etadi. Shoirning ijodida bolalikka, yoshlikka bag'ishlangan asarlari va she'rlar ko'p.

Ijodkorning ijodiy merosidagi dostonlarda ham bolalik bilan bog'liq tasvirlarga alohida o'rin ajratilgan:

Xayolning tumanli pardasi aro

Yillar ko'z oldimda charx urayotir,

Qishloq ko'chasidan zanjiday qaro

Olov bolaligim yugurayotir...

Shoir ushbu parchada urush tufayli otasidan quvnoq bolaligidan judo bo'lgan qahramon iztiroblarini aks ettirar ekan, "zanjirday qaro" "olov bolalik" ifodasini o'ziga xos tarzda izohlaydiki, yo'qtilgan bolalikning azob uqubatlari, sog'inch iztiroblari o'quvchi qalbiga ham ko'chadi.

Dostonda asosan 3 ta obraz faol ishtirok etgan. Ota, ona, bola asarning bosh qahramoni ya'ni shoirning o'zi. Doston avtobiografik xarakterga ham ega. Urushdagi otasini ikkala ko'zi teng sog'ingani bolalarcha aytayotgan lirik qahramonning ruhiy tasviri bayon etilgan:

Yuragimni yoqar o'tli iztirob,

Ammo ko'zlarimda bir tomchi yosh yo'q.

Bag'rim o'yib, Bu kun menga bermoqda azob.

Ota diydoriga to'ymagan bolaning qalbini o'rtdan armonlari, sog'inchi, his-hayajoni, iztiroblari "Nido" dostonini ahamiyatini yanada kuchaytirgan.

O'zbekiston xalq shoiri A. Oripov shoir ijodini shunday e'tirof etadi: "Mana, bir necha o'n yillardirki, biz dilbar bir she'riyatning muattar havosidan bahramand bo'lib kelayotirmiz. Bu Erkin Vohidov she'riyatidir. Ona tilimizning ipakdek mayin, kamalakdek rang-barang shamolli g'oyat nozik lutf, beozor qochirimlar, goh hazil, goh samimiy tabassum uyg'otuvchi tashbehlar, o'tkir xulosalar-bular bari ulkan shoirimizning qalamiga mansub betakror fazilatlaridir.

Erkin Vohidov - xalqchil shoir. Xalqning dardini o'z dardidek bilib, "Nido" dostonida batafsil ko'rsatib bera olgan.

Sen uchun, men uchun,
O‘z uchun emas,
Faqat o‘zbek va yo
Rus uchun emas,
Butun yer - undagi
Bor avlod uchun,
Dunyoda eng qutlug‘
E’tiqod uchun
Uzoq o‘lkalarda
Qon kechib hozir
Otang hayot uchun
Jang qilayotir.

O‘zbekiston xalq Shoir ushbu parchada qahramonlarning sog‘inchi, izzitoblari, o‘z xalqi uchun kurashayotgan otasi, xalqning himoya qilish uchun qon to‘kayotgan insonlarning maqsadi haqida bolaning onasi bilan suhbatini orqali aks ettirilgan. Urush davridagi qiyinchiliklar xalqning kechinmalari, alamli va izzitobli lavhalar bilan bir qatorda sodda misralar orqali ochib berilgan.

Adibni bu dostonida insoniyatga hamda xalqqa og‘ir judoliklar, bitmas jarohatlar keltiradigan urush qattiq qoralanadi. Kimningdir otasi, kimningdir akasi va yaqin insonlari bu urushda halok bo‘lganligi xalqning izzitobli kechinmalari yaqqol aks etgan.

Urush
Noming o‘chsin jahonda
Sen tufayli xonadonda ota nomli buyuk shodlik kam.

Shoirning "Nido" dostonida insoniyatga og‘ir judoliklar, xalqning izzitoblari, bitmas jarohatlar keltirgan urush qattiq qoralanadi.

Urushlar Qadim-qadimdan insoniyat boshiga og‘ir savdolar, talofatlar, yaqin insonlardan ajralish, katta kulfatlar solib kelgan. Urushlar tufayli qanchadan qancha odamlar qurbon bo‘lgan, ayollar tul, bolalar yetim qolgan, gullab- yashnab yotgan shahar va qishloqlar katta talofatlar ko‘rib, kulturega aylangan. Shoirning ushbu asarini o‘qib chiqar ekanmiz o‘sha davrdagi kechmishlar, xalqning og‘ir hayoti, orzu-umidlari, o‘sha vaqtdagi hayotiy voqealar ko‘z oldimizga keladi.

Asarda xalqning og‘ir ahvoldaligi insonlarning ichki kechinmalari shoir tomonidan yaqqol tasvirlab berilgan. Erkin Vohidovning har bir asarida xalqning umidlari kechinmalari yotadi.

Chunki shoir doim xalqni o‘ylab yashagan. Xalqning dardini ham o‘zining dardi deb bilgan.

Shoir "Nido" asarida xalqning kechmishi, umidlari, ogʻriqlari, iztiroblari juda serjilo tarzda ifoda etilgani uchun ham xalqimiz bu dostoni sevib oʻqiydi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda Erkin Vohidov she'riyati oʻzining samimiy sodda hamda betakrorligi bilan oʻziga chorlab turadi. Shoir serqirra ijod sohibi. Shoirning oʻzi aytganidek: "Bunday qaraganda bitta shoir qilishi mumkin boʻlgan ishni qilib qoʻygandekman. Lekin hech qachon oʻz qilgan ishimdan koʻnglim toʻlgan emas. Hamisha yozganimdan yozadiganim muhimroq va azizroq tuyulaveradi. Men ijodiy mehnatni faol jamoat ishlari bilan qoʻshib olib borishdek sharaflı vazifa yukini doimo yelkamda his qilganman. Odamlarga faqat she'ring emas, oʻzing ham kerakligingni his qilish bu katta baxt. Shuning uchun ham jamoat mehnatidan hech qachon oʻzimni olib qochgan emasman. Qaynoq hayot ichida yashab, ishlab oʻrganganman goʻshanishinlik tabiatimga begona" Qolaversa, zabardast shoirning har bir she'rida ulkan mahorat, joziba va betakrorlik aks etib turadi. Adib har bir asar va she'riga oʻz qalb qoʻrini singdiradi. Shoir, dramaturg, publitsist va tarjimon, jamoat arbobi Erkin Vohidov xotirasi xalqimiz qalbida abadiy barhayotdir.

REFERENCES

1. Vohidov E. "Tarjimai holim" maqolasi. Toshkent. "Yoshlik" jurnali. 10-son. 1992.
2. Vohidov E. "Qalb sadoqati" .5-jild. Toshkent. G'. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 2018.
3. Vohidov E. "Dostonlar". Toshkent.G'. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1976.
4. Vohidov E. "Muhabbat". Toshkent.G'. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1976.
5. Shukur Qurbon. Toshkent. "Ustoz saboqlari". "Sharq" nashriyoti. 2016.